| 25. | Respublikadagi hayvonot bog‘larida saqlanayotgan hayvonlarni ko‘paytirish tizimini takomillashtirish. | Amaliy chora-tadbirlar | 2022-yil noyabr | Mahalliy budjet mablag‘lari, homiylik xayriyalari | Madaniyat vazirligi *(Nazarbekov)*, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | va Toshkent shahar hokimliklari |
| 26. | Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlarda bittadan ko‘chma sirklar (shapito, dorbozlar guruhlari) hamda hayvonot bog‘larini tashkil etish va doimiy faoliyat yuritishini ta’minlash. | Amaliy chora-tadbirlar | 2022-yil dekabr | Mahalliy budjet mablag‘lari | Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyatlar hokimliklari |
| 27. | Iqtidorli va ijodkor yoshlarni izlab topish va ularni qo‘llab-quvvatlash maqsadida uch bosqichli “Boychechak” bolalar, “Parvoz” o‘smirlar, “Iftixor” yoshlar san’at ko‘rik-tanlovlarini o‘tkazish bo‘yicha yaxlit tizim yaratish. | Ijrochilarning qo‘shma qarori | 2023-yildan boshlab har ikki yilda bir marta | Madaniyat vazirligiga ajratilgan budjet mablag‘lari doirasida | Madaniyat vazirligi *(Nazarbekov)* |
| 28. | O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-fevraldagi “Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-112-son qarorida belgilangan vazifalar ijrosini samarali ta’minlash maqsadida Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar hamda har bir shahar, tuman bo‘yicha chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish.<br>Jumladan, bunda:<br>mahallalar kesimida 2022-yilda o‘tkaziladigan madaniy-ma’rifiy va konsert-tomosha tadbirlarining yillik kalendar rejasini tasdiqlash;<br>hududlardagi madaniyat va san’at | Ijrochilar qarori | 2022-yil 10-fevral | Mahalliy budjet mablag‘lari, homiylik xayriyalari | Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar, tuman, shahar hokimliklari |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | tashkilotlari faoliyatini qo'llab-quvvatlash;<br>hududlardagi jamoalarni, san'atkorlarni va madaniyat xodimlarini qo'shimcha rag'batlantirish;<br>madaniyat va san'at muassasalari va umumta'lim maktablarida tegishli to'garaklar faoliyatini samarali tashkil etishga ko'maklashish;<br>mahallalar, umumta'lim maktablari hamda madaniyat va san'at muassasalarida faoliyat yuritayotgan havaskorlik jamoalarining konsert dasturlarini tashkil qilish. | | | | |
| 29. | Yoshlar hayoti, orzu-intilish va muvaffaqiyatlarini keng yoritish, muammo va kamchiliklari yechimiga qaratilgan ko'rsatuv, maqola va eshittirishlar tayyorlashni yo'lga qo'yish maqsadida "Yoshlar media xoldingi" tashkil etish masalasini atroflicha ko'rib chiqish, uning samarali faoliyat ko'rsatish imkoniyatlarini tahlil etgan holda Vazirlar Mahkamasiga taklif kiritish. | Birgalikdagi taklif | 2022-yil avgust | | Yoshlar ittifoqi *(Zayniddinov)*, Yoshlar ishlari agentligi *(Sa'dullayev)*, O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi *(Xadjayev)*, Davlat aktivlarini boshqarish agentligi *(Ortiqov)*, Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi (*Xodjayev*), Adliya vazirligi *(Davletov)* |
| 30. | Har bir shahar, tumanda bittadan madaniyat tashkiloti faoliyatini namunali tashkil etish va ularning ilg'or tajribalarini respublika bo'yicha ommalashtirish. | Amaliy chora-tadbirlar | Namunali tashkil etish — 2022-yil oktabr, tanlov tashkil etish — | Mahalliy budjet mablag'lari, Madaniyat vazirligining budjetdan tashqari jamg'armasi mablag'lari, | Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar, tuman, shahar hokimliklari, Madaniyat vazirligi *(Nazarbekov)* |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | Eng yaxshi madaniyat tashkilotlari respublika tanlovini tashkil etish va ularni munosib rag‘batlantirish.<br>Respublika tanlovi g‘olibi bo‘lgan madaniyat tashkilotlariga aholiga madaniy xizmat ko‘rsatish uchun maxsus avtotransport vositasi ajratish. | | 2022-yil dekabr | homiylik xayriyalari | |
| **III. Madaniyat va san’at sohasida axborot texnologiyalarini joriy etish** | | | | | |
| 31. | Konsert-tomosha faoliyati ishtirokchilarining yagona onlayn portalini quyidagi bosqichlarda ishga tushirish:<br>2022-yil sentabrga qadar:<br>respublikada o‘tkaziladigan barcha madaniy tadbirlar to‘g‘risida ma’lumot to‘plash;<br>muayyan sanada o‘tkaziladigan madaniy tadbirlarga chiptalarni xarid qilish;<br>sayohat marshrutini (“Google”, “Yandex” va boshqa ommabop elektron xaritalardan foydalangan holda) tuzish, “Online-karaoke” xizmatini joriy etish;<br>2023-yil 1-sentabrga qadar:<br>konsert-tomosha faoliyati ishtirokchilari reyestri va ular faoliyati to‘g‘risida elektron ma’lumotlar bazasini shakllantirish;<br>konsert-tomosha faoliyati ishtirokchilarining ijodiy faoliyatiga oid | Amaliy chora-tadbirlar | 2023-yil sentabr | Madaniyat vazirligiga ajratilgan budjet mablag‘lari doirasida | Madaniyat vazirligi *(Nazarbekov)*, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi *(Shermatov)*, Moliya vazirligi *(Ishmetov)* |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | yangiliklarga bag‘ishlangan elektron sahifalarini (lentalarini) tashkil qilish;<br>audiovizual kontentlarini jamlash hamda qonunchilik talablariga mos ravishda tarqatish va ommalashtirish;<br>konsert-tomosha faoliyati ishtirokchilari faoliyatini keng targ‘ib qilish va onlayn baholab borish tizimini yaratish.<br>Bunda, davlat mukofotlari Madaniyat va san’at milliy mukofotiga tavsiya etish uchun nomzodlarni tanlab olishda yagona onlayn portal orqali to‘plangan ballar inobatga olinishini ta’minlash. | | | | |
| 32. | Aholi, xususan, yoshlarga milliy musiqa cholg‘ulari bo‘yicha dastlabki tushunchalarni beruvchi hamda ularni ijro etishni o‘rgatuvchi Cholgu.uz mobil ilovasini ishlab chiqish. | Amaliy chora-tadbirlar | 2023-yil iyun | Madaniyat vazirligiga ajratilgan budjet mablag‘lari doirasida | Madaniyat vazirligi *(Nazarbekov),* Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi *(Shermatov),* Moliya vazirligi *(Ishmetov)* |
| 33. | “Onlayn madaniyat markazi” platformasini yaratish va ommalashtirish.<br>Bunda:<br>an’anaviy shaklda faoliyat ko‘rsatayotgan madaniyat markazlaridagi to‘garaklarda o‘tkaziladigan mashg‘ulotlar asosida videodarslarning elektron bazasini yaratish;<br>to‘garaklarni zamonaviy texnologiyalar orqali va | Amaliy chora-tadbirlar | 2023-yil noyabr | Davlat budjeti mablag‘lari | Madaniyat vazirligi *(Nazarbekov),* Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi *(Shermatov),* Moliya vazirligi *(Ishmetov)* |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | masofaviy o‘qitish tizimi (elektron va videodarsliklar) asosida tashkil qilish hamda elektron kutubxona resurslarini yaratish. | | | | |
| 34. | Tegishli axborot tizimlarini ishlab chiqish va joriy qilish.<br>Bunda quyidagilarni nazarda tutish Madaniyat vazirligi tizimidagi ta’lim tashkilotlari hamda bolalar musiqa va san’at maktablari faoliyatini:<br>tashkil qilish, faoliyatini keng ommalashtirish, monitoring qilish va resurslarini boshqarish;<br>barcha jarayonlarni raqamlashtirish va ularning moddiy-texnika bazasini onlayn monitoring qilish;<br>statistik ma’lumotlarni jamlash va tahlil qilish. | Amaliy chora-?adbirlar | 2024/2025 o‘quv yili | Madaniyat vazirligiga ajratilgan budjet mablag‘lari doirasida | Madaniyat vazirligi *(Nazarbekov),* Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi *(Shermatov),* Moliya vazirligi *(Ishmetov)* |
| 35. | Zamonaviy texnologiyalarni joriy etgan holda Samarqand, Buxoro, Xorazm, Qashqadaryo, Farg‘ona viloyatlari va Toshkent shahrida “Golografik teatr” shou loyihalarini amalga oshirish. | Amaliy chora-tadbirlar | 2024-yil noyabr | Mahalliy budjet mablag‘lari, xususiy investitsiya | Madaniyat vazirligi *(Nazarbekov),* Samarqand, Buxoro, Xorazm, Qashqadaryo, Farg‘ona viloyatlari va Toshkent shahar hokimliklari, Turizm va sport vazirligi *(Azimov),* Moliya vazirligi *(Ishmetov)* |
| 36. | Umumta’lim maktablari o‘quvchilariga milliy musiqa cholg‘ulari bo‘yicha dastlabki tushunchalarni berish maqsadida QR kodli uslubiy qo‘llanma va darsliklar tayyorlash. | Amaliy chora-tadbirlar | 2024-yil noyabr | Xalq ta’limini rivojlantirish jamg‘armasi | Madaniyat vazirligi *(Nazarbekov),* Xalq ta’limi vazirligi (*Saidov*) |
| **IV. Madaniyat muassasalarini qurish, ta’mirlash va jihozlash hamda ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash** | | | | | |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 37. | Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbek milliy musiqa san’ati instituti binosidagi organ cholg‘u asbobini ta’mirlash. | Amaliy chora-tadbirlar | 2024-yil noyabr | Madaniyat vazirligiga ajratilgan budjet mablag‘lari doirasida | Madaniyat vazirligi *(Nazarbekov)*, Moliya vazirligi *(Ishmetov)* |
| 38. | Toshkent shahar, Yashnobod tumani hududidagi “Aviasozlar” madaniyat saroyi (sobiq) binosidan samarali foydalanish bo‘yicha quyidagilarni nazarda tutuvchi takliflar tayyorlash va Vazirlar Mahkamasiga kiritish:<br>madaniyat saroyi binosini O‘zbekiston davlat filarmoniyasiga operativ boshqaruv huquqi asosida o‘tkazish;<br>2022-yilda madaniyat saroyi binosini rekonstruksiya qilish bo‘yicha loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish;<br>2023-2024-yillarga mo‘ljallangan Investitsiya dasturi doirasida madaniyat saroyi binosini belgilangan tartibda ta’mirlash. | Takliflar, zarurat bo‘lsa, normativ-huquqiy hujjat loyihasi | 2024-yil noyabr | Investitsiya dasturi doirasida ajratilgan mablag‘lar | Madaniyat vazirligi *(Nazarbekov)*, Toshkent shahar hokimligi (A?tikxodjayev), Moliya vazirligi *(Ishmetov)*, Qurilish vazirligi *(Zakirov)*, Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi *(Boboyev)*, Davlat aktivlarini boshqarish agentligi *(Ortiqov)* |
| 39. | Hududlarga jalb etilgan teatr sohasi mutaxassislarini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash.<br>Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlardagi teatrlarga bittadan 2 yoki 3 xonali xizmat uylarini operativ boshqaruv huquqi asosida ajratish.<br>Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlardagi mavjud teatrlarda faoliyat olib | Amaliy chora-tadbirlar | 2022 — 2024-yil | Mahalliy budjet mablag‘lari, homiylik xayriyalari, qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa mablag‘lar | Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar hokimliklari |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | borayotgan ehtiyojmand mutaxassislarga xizmat uylari ajratish. | | | | |
| 40. | O‘zbekiston Teatr arboblari uyushmasi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va moddiy-texnika bazasini mustahkamlash.<br>Bunda:<br>Madaniyat vazirligini uyushmaning muassislaridan biri sifatida kiritish taklifini ko‘rib chiqish;<br>uyushmaga 2022-2023-yillarda 5 mlrd so‘m miqdorida bir martalik mablag‘ ajratish;<br>uyushmani Toshkent shahri, Shayxontohur tumani, Navoiy ko‘chasi, 30-uy manzilidagi binoga tekin foydalanish huquqi asosida joylashtirish. | Amaliy chora-tadbirlar, zarurat bo‘lsa, normativ-huquqiy hujjat loyihasi | 2022-2023-yillar | - | Madaniyat vazirligi *(Nazarbekov),* Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi (*Xodjayev*), Adliya vazirligi *(Davletov),* Moliya vazirligi (Ishmetov), Davlat aktivlarini boshqarish agentligi *(Ortiqov)* |
| 41. | Notalar to‘plamlari va maxsus musiqiy adabiyotlarni chop etish hamda ularni ta’lim tashkilotlariga yetkazish. | Amaliy chora-tadbirlar | 2022 — 2024-yillar | Davlat budjeti mablag‘lari | Madaniyat vazirligi *(Nazarbekov),* Xalq ta’limi vazirligi (*Saidov*), Moliya vazirligi *(Ishmetov)* |
| 42. | Dorbozlar guruhlari faoliyatini ko‘llab-quvvatlash, ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash hamda respublika bo‘ylab gastrol safarlarini tashkil etish. | Ijrochilar qarori | 2022-2023-yillar | mahalliy budjet mablag‘lari | Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyatlar hokimliklari, Madaniyat vazirligi *(Nazarbekov)* |
| | Shu jumladan, Andijon, Farg‘ona, Namangan, Jizzax, Samarqand, Sirdaryo viloyatlaridagi ilg‘or dorbozlar guruhlarini maxsus avtotransport vositalari bilan ta’minlash. | Viloyat hokimi qarori | 2022-yil iyun | mahalliy budjet mablag‘lari | Andijon, Farg‘ona, Namangan, Jizzax, Samarqand, Sirdaryo viloyatlari hokimliklari |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 43. | Oʻzbekiston davlat drama teatri binosini ta’mirlash-tiklash va jihozlash ishlarini amalga oshirish.<br>Bunda:<br>2022-yilda teatr binosini ta’mirlash-tiklash boʻyicha loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish;<br>2023-yilda teatr binosini belgilangan tartibda toʻliq ta’mirlash-tiklash. | Amaliy chora-tadbirlar | 2022-2023-yillar | Ta’mirlash-tiklash — madaniy meros sohasiga, jihozlash — Madaniyat vazirligiga ajratilgan Davlat budjeti mablagʻlari doirasida | Madaniy meros agentligi *(Nurulloyev)*, Madaniyat vazirligi *(Nazarbekov)*, Moliya vazirligi *(Ishmetov)* |

*Izoh: Vazirlar Mahkamasi bilan kelishilgan holda ushbu “yoʻl xarita”da ishlab chiqilishi belgilangan qonunchilik hujjatlari loyihalari birlashtirilishi va (yoki) qonunchilik hujjat turi oʻzgartirilishi mumkin.*

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-fevraldagi PQ-112-son qaroriga
5-ILOVA

## Davlat budjeti mablagʻlari hisobidan davlat teatrlari va “Oʻzbek davlat sirki” davlat muassasasini avtobus va yuk transport vositalari bilan ta’minlash

REJASI*

| **T/r** | **Tashkilot nomi** | **Avtobus maxsus avtotransport vositasi** *(Isuzu)* | | | | | | | | **Yuk ma...** | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | **Jami** | | **2022-yil** | | **2023-yil** | | **2024-yil** | | **Jami** | | |
| | | **soni*** | **summasi**** | **soni** | **summasi** | **soni** | **summasi** | **soni** | **summasi** | **soni** | **summasi** | **so...** |
| **Jami** | | **20** | **9 000** | **5** | **2 250** | **7** | **3 150** | **8** | **3 600** | **38** | **20 140** | **7...** |
| 1. | Oʻzbek Milliy akademik drama teatri | **1** | **450** | | | | | 1 | 450 | **1** | **530** | |
| 2. | Oʻzbekiston davlat akademik rus drama teatri | **1** | **450** | | | 1 | 450 | | | **1** | **530** | |
| 3. | Oʻzbekiston davlat drama teatri | **1** | **450** | 1 | 450 | | | | | **1** | **530** | |
| 4. | Oʻzbekiston davlat musiqali komediya teatri | **0** | **0** | | | | | | | **1** | **530** | |
| 5. | Oʻzbekiston davlat satira teatri | **1** | **450** | | | 1 | 450 | | | **1** | **530** | 1... |
| 6. | Oʻzbekiston davlat yoshlar teatri | **1** | **450** | 1 | 450 | | | | | **1** | **530** | |
| 7. | Oʻzbekiston davlat yosh tomoshabinlar teatri | **0** | **0** | | | | | | | **1** | **530** | |
| 8. | Oʻzbek Milliy qoʻgʻirchoq teatri | **1** | **450** | | | 1 | 450 | | | **1** | **530** | 1... |

| | | | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 9. | Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat akademik musiqali teatri | **0** | **0** | | | | | | | **1** | **530** | 1 |
| 10. | “Diydor” yoshlar eksperimentalteatr-studiyasi | **1** | **450** | | | 1 | 450 | | | **1** | **530** | |
| 11. | “Tomosha” bolalar musiqiy teatr-studiyasi | **1** | **450** | 1 | 450 | | | | | **1** | **530** | |
| 12. | Qoraqalpoq davlat yosh tomoshabinlar teatri | **1** | **450** | | | | | 1 | 450 | **1** | **530** | 1 |
| 13. | Qoraqalpoq davlat qo‘g‘irchoq teatri | **1** | **450** | | | 1 | 450 | | | **1** | **530** | |
| 14. | Andijon viloyati musiqali drama teatri | **0** | **0** | | | | | | | **1** | **530** | |
| 15. | Andijon viloyati yoshlar teatri | **0** | **0** | | | | | | | **1** | **530** | |
| 16. | Andijon viloyati qo‘g‘irchoq teatri | **1** | **450** | | | | | 1 | 450 | **1** | **530** | |
| 17. | Buxoro viloyati musiqali drama teatri | **0** | **0** | | | | | | | **1** | **530** | |
| 18. | Buxoro viloyati qo‘g‘irchoq teatri | **0** | **0** | | | | | | | **1** | **530** | |
| 19. | Jizzax viloyati musiqali drama teatri | **1** | **450** | 1 | 450 | | | | | **1** | **530** | 1 |
| 20. | Jizzax viloyati qo‘g‘irchoq teatri | **1** | **450** | | | 1 | 450 | | | **1** | **530** | 1 |
| 21. | Namangan viloyati musiqali drama teatri | **0** | **0** | | | | | | | **1** | **530** | |
| 22. | Samarqand viloyati musiqali drama teatri | **0** | **0** | | | | | | | **1** | **530** | |
| 23. | Samarqand viloyati rus drama teatri | **0** | **0** | | | | | | | **1** | **530** | |
| 24. | Samarqand viloyati qo‘g‘irchoq teatri | **0** | **0** | | | | | | | **1** | **530** | |
| 25. | Kattaqo‘rg‘on shahar drama teatri | **0** | **0** | | | | | | | **1** | **530** | |
| 26. | Sirdaryo viloyati musiqali drama teatri | **0** | **0** | | | | | | | **1** | **530** | |

| | | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 27. | Surxondaryo viloyati musiqali drama teatri | **0** | **0** | | | | | | | **1** | **530** | |
| 28. | Surxondaryo viloyati qo‘g‘irchoq teatri | **0** | **0** | | | | | | | **1** | **530** | |
| 29. | Farg‘ona viloyati musiqali drama teatri | **1** | **450** | | | | | 1 | 450 | **1** | **530** | |
| 30. | Farg‘ona viloyati qo‘g‘irchoq teatri | **1** | **450** | | | | | 1 | 450 | **1** | **530** | |
| 31. | Farg‘ona viloyati rus drama teatri | **1** | **450** | | | | | 1 | 450 | **1** | **530** | |
| 32. | Marg‘ilon shahar musiqali maqom teatri | **0** | **0** | | | | | | | **1** | **530** | |
| 33. | Qo‘qon shahar musiqali drama teatri | **1** | **450** | | | | | 1 | 450 | **1** | **530** | |
| 34. | Qashqadaryo viloyati musiqali drama teatri | **0** | **0** | | | | | | | **1** | **530** | |
| 35. | Qashqadaryo viloyati qo‘g‘irchoq teatri | **1** | **450** | | | 1 | 450 | | | **1** | **530** | |
| 36. | Xorazm viloyati musiqali drama teatri | **0** | **0** | | | | | | | **1** | **530** | |
| 37. | Xorazm viloyati qo‘g‘irchoq teatri | **1** | **450** | | | | | 1 | 450 | **1** | **530** | |
| 38. | “O‘zbek davlat sirki” davlat muassasasi | **1** | **450** | 1 | 450 | | | | | **1** | **530** | 1 |

** Davlat teatrlari va “O‘zbek davlat sirki” davlat muassasasida mavjud avtotransport vositalari xatlovdan o‘tkaziladi. Xatlov yakunlari bo‘yicha mazkur rejada belgilangan avtotransport vositalari soni o‘zgarishi mumkin;*

*** Avtotransport vositasining narxi o‘zgarganda, ushbu rejada ko‘zda tutilgan mablag‘ miqdori o‘zgarishi mumkin.*

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-fevraldagi PQ-112-son qaroriga
6-ILOVA

## Davlat budjeti mablag‘lari hisobidan tuman (shahar) madaniyat bo‘limlarini maxsus avtotransport vositasi bilan ta’minlash

REJASI*

*mln so‘m*

| T/r | Tashkilot nomi | Avtotransport vositasi *(Damas)*** | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | Jami | | 2022-yil | | 2023-yil | | 2024-yil | |
| | | soni* | summasi** | soni | summasi | soni | summasi | soni | summasi |
| **Jami** | | **201** | **16 080** | **44** | **3 520** | **77** | **6 160** | **80** | **6 400** |
| 1. | Qoraqalpog‘iston Respublikasi | **17** | **1 360** | 3 | 240 | 7 | 560 | 7 | 560 |
| 2. | Andijon viloyati | **17** | **1 360** | 3 | 240 | 7 | 560 | 7 | 560 |

| | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 3. | Buxoro viloyati | **13** | **1 040** | 3 | 240 | 5 | 400 | 5 | 400 |
| 4. | Jizzax viloyati | **13** | **1 040** | 3 | 240 | 5 | 400 | 5 | 400 |
| 5. | Qashqadaryo viloyati | **15** | **1 200** | 3 | 240 | 6 | 480 | 6 | 480 |
| 6. | Navoiy viloyati | **7** | **560** | 2 | 160 | 2 | 160 | 3 | 240 |
| 7. | Namangan viloyati | **14** | **1 120** | 3 | 240 | 5 | 400 | 6 | 480 |
| 8. | Samarqand viloyati | **16** | **1 280** | 3 | 240 | 6 | 480 | 7 | 560 |
| 9. | Surxondaryo viloyati | **14** | **1 120** | 2 | 160 | 6 | 480 | 6 | 480 |
| 10. | Sirdaryo viloyati | **11** | **880** | 3 | 240 | 4 | 320 | 4 | 320 |
| 11. | Toshkent viloyati | **20** | **1 600** | 4 | 320 | 8 | 640 | 8 | 640 |
| 12. | Farg‘ona viloyati | **19** | **1 520** | 5 | 400 | 7 | 560 | 7 | 560 |
| 13. | Xorazm viloyati | **13** | **1 040** | 3 | 240 | 5 | 400 | 5 | 400 |
| 14. | Toshkent shahri | **12** | **960** | 4 | 320 | 4 | 320 | 4 | 320 |

** Tuman (shahar) madaniyat bo‘limlarida mavjud avtotransport vositalari xatlovdan o‘tkaziladi. Xatlov yakunlari bo‘yicha mazkur rejada belgilangan avtotransport vositalari soni o‘zgarishi mumkin;*

*** Avtotransport vositasi narxi o‘zgarganda, ushbu rejada ko‘zda tutilgan mablag‘ miqdori o‘zgarishi mumkin.*

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-fevraldagi PQ-112-son qaroriga
7-ILOVA

## O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining va O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga kiritilayotgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-noyabrdagi “O‘zbek milliy maqom san’atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3391-son qarorida:

a) 8-bandning beshinchi xatboshisidagi “namunali ansambllarini” so‘zlari “hududiy bo‘limlarini” so‘zlariga almashtirilsin;

b) 9-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“9. Madaniyat vazirligi, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, Moliya vazirligi, Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar hokimliklari uch oy muddatda viloyatlarda O‘zbek milliy maqom san’ati markazining yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lgan hududiy bo‘limlarini tashkil etsin”.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 1-avgustdagi “Madaniyat va san’at sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3892-son qarorida:

a) 3-bandning ikkinchi xatboshisi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi va Kinematografiya agentligi tomonidan o‘tkaziladigan tanlov natijalari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining “Davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq tuziladi. Bunda ushbu qarorning 1-bandi sakkizinchi xatboshisida nazarda tutilgan holda tanlov o‘tkazilmaydi”;

b) 4-bandning ikkinchi xatboshisidagi “Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirish davlat dasturlarini moliyalashtirish jamg‘armasida” so‘zlari “Madaniyat vazirligining budjetdan tashqari jamg‘armasida” so‘zlari bilan almashtirilsin.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 26-maydagi “O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4730-son qarorida:

a) 1-bandda:

ikkinchi xatboshidagi “va axborot-multimedia” so‘zlari chiqarib tashlansin;

sakkizinchi xatboshi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Guliston” va “Teatr” jurnallari tahririyatlari yagona tahririyatga birlashtirilsin”;

b) $9^{1}$-bandda:

quyidagi mazmundagi ikkinchi — o‘n birinchi xatboshilar bilan to‘ldirilsin:

“Quyidagilar Madaniyat vazirligining budjetdan tashqari jamg‘armasi mablag‘larini shakllantirish manbalari etib belgilansin:

Davlat budjetidan ajratiladigan mablag‘lar;

vazirlik tizimidagi davlat korxonalarining foydasidan davlat ulushi bo‘yicha belgilangan miqdorda dividentlar to‘langandan so‘ng qolgan mablag‘ning 15 foizi;

teatrlar, sirk va konsert-tomosha muassasalari tomonidan tashkil etiladigan madaniy tadbirlarni o‘tkazishdan olinadigan foydaning 10 foizi;

Jamg‘armaning vaqtincha bo‘sh turgan mablag‘larini depozitlarga joylashtirishdan olinadigan daromadlar;

davlat-xususiy sheriklik asosida olinadigan daromadlarning taqsimlanishidan tushgan mablag‘lar;

vazirlik tashabbusi bilan vazirlik tizim tashkilotlari tomonidan tashkil etiladigan konsert-tomosha tadbirlari, spektakllar, shou dasturlar va boshqa tadbirlardan tushadigan mablag‘lar;

vazirlik tasarrufidagi “Yagona buyurtmachi xizmati” injiniring kompaniyasining budjetdan tashqari hisob raqamidan ajratiladigan mablag‘lar;

xalqaro moliya tashkilotlari, xorijiy davlatlar va boshqa donorlarning kreditlari, grantlari va texnik ko‘maklashish mablag‘lari;

qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar”;

ikkinchi-uchinchi xatboshilar tegishincha o‘n ikkinchi-o‘n uchinchi xatboshilar deb hisoblansin.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 5-noyabrdagi “Yurish, yugurish, mini-futbol, badminton, stritbol va “Workout” sport turlarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5282-son qarorida:

a) 3-bandning ikkinchi xatboshisidagi “Samarkand Nalf Marathon” so‘zlari “Samarkand Marathon” so‘zlari bilan almashtirilsin;

b) 1-ilovaning 25-pozitsiyasida:

“Amalga oshirish mexanizmi” ustunidagi “Samarkand Nalf Marathon” so‘zlari “Samarkand Marathon” so‘zlari bilan almashtirilsin;

“Mas’ul ijrochilar” ustuni quyidagi tahrirda bayon qilinsin:

“Turizm va sport vazirligi, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Madaniyat va san’atni rivojlantirish jamg‘armasi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, vazirlik, idora va tashkilotlar, O‘zbekiston Milliy olimpiya qo‘mitasi, sport federatsiya (assotsiatsiya)lari”.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 27-dekabrdagi “Opera va balet san’atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-64-son qarorida:

a) 11-bandning beshinchi xatboshisi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“2022-yil 1-iyuldan boshlab Teatr xodimlari lavozim maoshlarini mehnatga haq to‘lashning bazaviy lavozim maoshlari miqdoriga hamda Yagona tarif setkasi bo‘yicha mehnatga haq to‘lashning tasdiqlangan razryadlariga asosan belgilashda tarif koeffitsiyentlari miqdori Davlat budjeti hisobidan 1,5 baravarga oshirilgan holda qo‘llaniladi”;

b) 7-ilovada:

3-pozitsiyaning “Moliyalashtirish manbalari va summasi” ustuni quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Qoraqalpog‘iston Respublikasi respublika budjeti va viloyatlar mahalliy budjetlari mablag‘lari, homiylik xayriyalari, metsenatlik ko‘magi”;

4-pozitsiyaning rus tilidagi matnida “Istochniki i summa finansirovaniya” ustuni quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Sredstva respublikanskogo budjeta, blagotvoritelnie pojertvovaniya, metsenatskaya podderjka”.

6. Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 3-sentabrdagi 414-son qarori bilan tasdiqlangan Budjet tashkilotlari xarajatlarini moliyalashtirish (to‘lash) tartibi 29-bandining yettinchi xatboshisi “xalq ta’limi” so‘zlaridan keyin “hamda madaniyat” so‘zlari bilan to‘ldirilsin.

7. Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 30-sentabrdagi “Opera san’atiga ixtisoslashtirilgan maktab-internat tashkil etish to‘g‘risida”gi 595-son qarorining 2-bandi uchinchi xatboshisi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“2022/2023 o‘quv yilidan boshlab maktab-internatning 8-sinfiga 25 nafar o‘quvchi tanlov asosida qabul qilinadi”.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-fevraldagi PQ-112-son qaroriga
8-ILOVA

## O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining va O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblanayotgan ayrim qarorlari

RO‘YXATI

1. “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 8-avgustdagi “O‘zbekiston davlat konservatoriyasi faoliyatini yanada rivojlantirish va takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3178-son qarorida:

a) 1-bandning uchinchi xatboshisi va qarorga 2-ilova;

b) 3-band.

2. Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzuridagi O‘zbekistonga oid xorijdagi madaniy boyliklarni tadqiq etish markazi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 700-son qarori.

3. Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 14-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o‘zgartirishlar kiritish, shuningdek, ba’zi qarorlarini o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblash to‘g‘risida”gi 109-son qaroriga ilovaning 20-bandi.

4. Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 29-maydagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ijro etuvchi tuzilmasi takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi 400-son qaroriga ilovaning 35-bandi.

5. Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 23-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish, shuningdek, ba’zilarini o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblash to‘g‘risida (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Idoralararo kollegial organlarni tubdan qisqartirish va yanada optimallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2018-yil 28-avgustdagi PF-5527-son Farmoni)”gi 161-son qaroriga 1-ilovaning 34-bandi.

6. Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 13-maydagi “O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning strategik vazifalari amalga oshirilishi samaradorligi uchun O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining mas’uliyatini oshirishga doir birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2019-yil 28-yanvardagi PF-5644-son, “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish, shuningdek, ba’zilarini o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblash to‘g‘risida” 2019-yil 1-fevraldagi PF-5650-son farmonlari va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Hukumati ishini tashkil etishning sifat jihatidan yangi tizimini joriy etish to‘g‘risida” 2019-yil 28-yanvardagi PQ-4136-son qarori)”gi 397-son qaroriga ilovaning 63-bandi.

7. Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 26-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish, shuningdek, ba’zilarini o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblash to‘g‘risida (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ijro etuvchi tuzilmasini takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2020-yil 22-yanvardagi PQ-4569-son, “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi faoliyatini takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2020-yil 24-fevraldagi PQ-4612-son, “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining tuzilmasiga Bosh vazirning investitsiyalar va tashqi iqtisodiy aloqalar masalalari bo‘yicha o‘rinbosari-investitsiyalar va tashqi savdo vaziri lavozimini kiritish to‘g‘risida” 2020-yil 10-martdagi PQ-4635-son va “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining faoliyatini takomillashtirishga oid

qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2020-yil 12-maydagi PQ-4710-son qarorlari)”gi 411-son qaroriga 1-ilovaning 24-bandi.

8. Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 8-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish, shuningdek, ba’zilarini o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblash to‘g‘risida (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Madaniyat va san’at sohasining jamiyat hayotidagi o‘rni va ta’sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 26-maydagi PF-6000-son Farmoni va “O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 26-maydagi PQ-4730-son qarori)”gi 7-son qaroriga ilovaning 6-bandi.

*(Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 03.02.2022-y., 07/22/112/0099-son; 04.12.2024-y., 07/24/399/1000-son)*